HUQUQIY SAVODXONLIKNI YUKSALTIRISHDA KONSTITUSIYANING O'RNI VA AXAMIYATI

Sayfitdinova Madinabonu Shaxitbek qizi
ADPI Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.10069249

Kalit so'zlar: Huquqiy savodxonlik, konstitutsiya, tsivilizatsiya, demokratik tartib, huquq, erkinlik, ibtidoiy munosabatlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy savodxonlikni yuksaltirishda konstitusiyaning o'rni va axamiyati ilmiy dalillar asosida keng va atroflicha yoritib berilgan.

Insoniyat tarixida uzoq va davomli davirlar maboynida, ko'p qirrali va murakab tarzda yo'dosh bo'lib kelayotgan madaniy xususiyatlaridan biri huquqiy savodxonlik muammosidir. Sivilizatsiya - yani fuqaroviy, tartib, tizimi vujudga kelishi bilan, ibtidoiy munosabatlar o'z o'rnini, ijtimoyi madaniylashgan, umum kelishilgan va barcha so'zsiz bo'y sunishi shart bo'lgan qonun qoidalar shakillana boshlanishidir. Demakki insonlar o'z aro kelishuv va xamjixat bo'lib istiqomat qiladigan, birgalikda barcha ijtimoiy itisodiy muammolarni xal qiladigan jamiyatni qurish va ayniqsa uni rivojlantirishga birgalikda xarakat sodir etishlari zarurati vujudga keldi. Tarixiylikka qaralsa shunday oqil tizimlarni shakillantira olgan jamiyatlar, xalqlar o'zoq yillar, asrlar davomita tinch farovon yashaganliklarini ko'rishimiz mumkin. Va aksincha tarixiy davir uchun bir zumdavir surgan, huquqiy jixatdan jamiyatda mutanosiblik topmagan davlatlarni tez fursat ichida g'oib bo'lganni ko'ramiz.

Zamonamizning talablaridan biri va asosiysi, jamiyat xuquqiy savodxonligining yukori bo'ilishi zaruratidir. Buning sababi va moxiyati, birinchi galda davir voqeya va xodisalarining sodir bo'lishining shiddat bilab o'tib borishi bo'lsa, ikkinchidan qurilayotgan jamiyatlarnining ijtimoyi siyosiy tizim talablaridagi demokratik tartiblarning shakillantirilishidir. Demokratik tartib shakillanishi uchun shunday tizim qurishga axd qilgan jamiyat a'zolari avvalo o'zlarining ongida, ruxiyatida, ijtimoyi xususiyat va fazilatlarida uning tamoillarini mujasam etishlari talab etiladi. Demokratik – xokimiyat deb yuritilishinig sababi uning lug'aviy kelib chiqishi "demos-xalq, kratos-xokimiyat" manolarini bersa, tamoillari "tenglik, erkinlik, plyuralizim" moxiyatiga olib boradi. Shunday ekan jamiyatdagi barcha tartib, tizim, qonun qoida, barcha ijtimoyi munosabatlar majmualari, xatto mayishiy xayot talablari barchasi, xar bir fuqaroning huquq va burchlari savodxonligi asosiga quriladi.

Bugun O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan va shiddat bilan mustaqilligimizni mustaxkamlashga qaratilgan barcha isloxiy urinishlar aynan demokratik munosabatlarni tubdan, jamiyat a'zolarining inon ixiyori va bevosita faol ishtirokidan sodir etilshi belgilanmaqda. 1992 yil qabul qilingan va tariximizda fenominal voqeilik bo'lgan Mustaqil O'zbekistonimiz Konstitusiyasining to'la qonli huquqiy xujjatga aylanishi xuquqiy savodxonlik ruxiyatini vujudga kelishidagi birinchi va va eng zarur qadam bo'ldi desak xaqiqatga juda yaqin bo'ladi. Xalqimiz birinchi marotaba o'zining mustaqil ixtiyori bilan vujudga keltirgan va o'z inon itiyoriga mos huquqiy Qomusini qabul qildi. Zero shunday ekan bunday hujjat na faqat qonun qoidalarimizni balqi xayot tartib intizomini ham shakillantiradigan deyarli muqaddas bitiklarga aylanishi kerak. O'zbekiston xalqining bugungi kun siymosi, ichki va tashqi siyrati Kontsitusiyamiz mazmun moxiyatidan kelib chiqib o'zgarisha sodir bo'lishi kerak, shundoq xam bo'lib bormoqda.

Yuqoridagi keltirgan fikirlarimiz xozirda O‘zbekistonimizda amalga oshayotgan barcha isloxiy o‘zarishlarni to‘g‘ri baxolay olishimizga turtki bo‘lishi kerak. Qilinishi kerak bo‘lgan barcha ishlarimiz avvalo o‘z qo‘limiz,aqil idrokimiz, kuch qudramimiz, zakovatimiz bilan kilinadi. Bu degani Konstitusiyamizning muqadimasida yozilgan “respublikamiz fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini taminlashga intilib”[1] deya bitilgan tamoillar o‘zimizga, o‘z aqilimiz, qalbimiz, intilishimizga qaratilganini ko‘ramiz.

Aytish kerak bu xodisa bir zumda yoki inqilobiy tezlikda amalga oshmaydi, bunda bo‘lishi mumkin ham emas. Insoniyatning tamadduni rivojlanishi shuni ko‘rsatadiki barcha ezgu xadisa va vaqeyliklar tajrijiy sodir bo‘lib borgan. Bizning rivojlanishimiz ham shundo shoshilmasdan, o‘ta oshiqmasdan sodir bo‘lib bormoqdki, xar bir isloxiy qadamiziz ma’rifiy o‘zgarishlarimiz yuilan bog‘liq xolda amalga oshirilishini ko‘ra lishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining tamoillaridan biri “insonparvar demokratik huquqy davlat barpo etishni ko‘zlab,”[2] deya takidlaydi. Yangi shakillantirayotgan jamiyatimiz, demokratik, xuquqiy, odil tartiblarni shakillantirishga qaratilgandir. Bular sodir bo‘lishi uchun esa jamiyat ongi va ruxiyati to‘la o‘zgarishi kerak. Demak barchamiz avvalo o‘zimizning xususiyat va fazilatlarimizni o‘zgartirishimiz talab etiladi, buni amalga oshirish oson va tez bo‘lmaydi. Sababi xar bir xususyatimiz sekin asta yillar davomida shakillanib, mutadillashib, qa’tiylashib borad. Ularni o‘zgartirish, yangilash, ma’lum talablarga javob beradigan qilish uchun vaqt, urinish, ijtimoyi muxit bo‘lishi kerak.

Etibor berib qaralsa yuqoridagi fikirlarni jamlagan xolda shunday xulosa kelib chiqadi. Inson tabiatan yaratuvchi bo‘lib dunyoga keladi, bu yaratuvchilik uning ongi, aqil idrokiga bog‘liq, lekin aytish kerakki bu xislat faqatgina uning ma’rifati, idroki, tafakkuri, iqtidori darjasida sodir bo‘lishi mumkin. Demakki buning uchun ijtimoyi muxit, jamiyatning yuksalishga extiyoji, davlat va jamiyat manfaatlarining yuqoriligi, qonunlarning insonlar munosabatida ustunligi oldindan talab qilinadigan manfaatlar bo‘lmog‘i darkor.

Amalga oshirayotgan barcha isloxiy maqsadlarimizning negizida, avvalo jamiyatimiz a’zolarining ma’rifiy o‘zgarishi, yuksalishi, ong va zakovatimizning ortishi talabi turibdi. Bu degani barchamiz o‘zligimizni xar taraflama anglashimiz, uni imkon qadar yuqorilatishimiz, bo‘layotgan va qilayotgan xar bir ishimizning moxiyatini idrok va tafakkur qilishimiz kerak. Buning amalga oshishida esa bevosita va bilvosita xuquqiy ongimiz, ma’rifatimiz katta va zaruriy talab sifatida o‘ringa va o‘z o‘rniga egadir.

Jamiyatiimzda amalga oshirilayotgan va qilinayotgan barcha voqeylik va xodisalar bizning mustaqilligimizni nishonasi sifatida namoyon bo‘ladi. Nimaiki qilsak o‘zimiz qilmofdamiz, xuquqimiz bor deya so‘z aytamiz lekin bu xuquqimizni kim berdi, qaydal oldik deya deyarli o‘ylab ko‘rmaymiz. Vaxolanki xuquqlarimizning barchasi burchimiz bilan belgilanadi, eng oldingi burchimiz esa huquqi savodxonlikka va ma’rifatiga ega bo‘lishdir. Bunday savodxonlikni va marifatni Konstituisiyami berishini angashimiz uni bilishimiz, o‘rganib xayot extiyojiga aylatirishimizgina bizni xaqiqiy suveren- mustaqil bo‘lishimizga olib boradi.

Xulosa qilib shuni takidlash mumkinki, o‘zligi, inson xuquqlari kafolatiga mansubgi, o‘z burchini teran anglaydigan, fuqarolik xuquqlarini bajarib bora oladigan, faol inson bo‘lish uchun huquqiy sovodxonlik, ma’rifat xar birimizga kerak va zarur talablardir. Bu xususiyat va fazilatlarga ega bo‘lish mumkin bo‘lgan mezonlar omili, faqatgina Konstitusion qonunlar,

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент 2023йил. 3 бет.
[2] Ўша жойда.

qoidalar, ularning jamiyat ijtimoyi xayotidagi ustunligi ekanligini anglagan xolda barchamiz bajarib borishimizning shartligidir. Xa, O‘zbekiston Respublikasi Konstusiyasi jamityaimiz ma’rifati mezonlarida, huquqiy savodxonlikning asosiy omili ekanligini aytishimiz mumkin.